

OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA JAMOAT
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH FAOLIYATI: ICHKI ISHLAR ORGANLARI
VAZIFALARI TAHLILI MISOLIDA

Nasirov Xurshid Rustamovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21611715>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarining (IIO) tayanch vazifalari hamda faoliyat mexanizmlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Ichki ishlar organlarining tadbirdan oldingi (tayyorgarlik va obyekt tekshirish), tadbir vaqtidagi (tartibni saqlash) va undan keyingi bosqichlardagi o'ziga xos taktik-tashkiliy funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash sohasida Milliy gvardiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan o'zaro hamkorlik masalalari, ommaviy tadbirlarda zamonaviy raqamli texnologiyalar va intellektual tizimlardan ("Aqlli mudofaa" va videokuzatuv tahlili) foydalanish amaliyoti ko'rib chiqilib, tizimdagi faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, ommaviy tadbirlar, jamoat xavfsizligi, vazifalar tahlili, idoralararo hamkorlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, raqamli texnologiyalar, taktik-tashkiliy tadbirlar.

Jamiyatning madaniy, ijtimoiy-siyosiy va sport hayotida ommaviy tadbirlar muhim ahamiyat kasb etib, ular fuqarolarning jipslashuvi, ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirishi hamda davlatning xalqaro imijini shakllantirishiga xizmat qiladi. Biroq, katta hajmdagi insonlar massasining cheklangan makonda to'planishi doimo o'zida yashirin xavf-xatarlarni – tiqilinchlar, jamoat tartibining buzilishi, favqulodda vaziyatlar hamda turli huquqbuzarliklar ehtimolini mujassam etadi. Bunday sharoitda ommaviy tadbirlar davomida fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va qonuniy manfaatlarining daxlsizligini qat'iy kafolatlash davlatning, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning eng ustuvor vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlashning yaxlit tizimi doirasida Ichki ishlar organlari ommaviy tadbirlarni xavfsiz o'tkazishda bevosita mas'ul va tayanch tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Yangilangan "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi" talablari va jinoiy odil sudlov sohasidagi islohotlar asosida bugungi kunda Ichki ishlar organlarining faoliyati nafaqat oqibatlarga qarshi kurashish, balki ehtimoliy xatar va tahdidlarni barvaqt aniqlash hamda neytrallashtirishga qaratilgan. Bunda ommaviy tadbirlarni rejalashtirish bosqichidan boshlab, to uning yakuniga qadar bo'lgan jarayonlarda IIO xodimlarining tegishli vakolat doirasida Milliy gvardiya bo'linmalari, mahalliy hokimiyat organlari hamda tadbir tashkilotchilari bilan idoralararo hamkorligini to'g'ri va aniq muvofiqlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, jadal globallashtirish va zamonaviy tahdidlar xarakterining o'zgarishi ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmay, maxsus tayyorgarlik va zamonaviy yondashuvlarni talab etmoqda. Raqamlashtirilgan kiber-profilaktika usullari, yuzni tanib olish intellektual tizimlari hamda tezkor vaziyatni raqamli modellashtirish kabi ilg'or amaliyotlarni keng joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Hozirgi globallashuv va urbanizatsiya sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash, ayniqsa ommaviy tadbirlar davomida, davlatning huquq-tartibot organlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. O'zbekistonda turli ommaviy madaniy, sport, diniy va siyosiy tadbirlar o'tkazilayotgan bir paytda ichki ishlar organlarining ushbu jarayondagi ishtiroki va javobgarligi tobora ahamiyat kasb etmoqda. Bu mavzuning dolzarbligi, eng avvalo, jamoat tartibini buzish, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik tahdidlari, yoki favqulodda vaziyatlarning oldini olish zarurati bilan bog'liqdir.

Ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim vazifalarni bajaradi, chunki ularning faoliyati jamiyatdagi tartib-intizom va barqarorlikni saqlashga qaratilgan. Ushbu organlar xavfsizlikni ta'minlash orqali fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va hayot sifatini himoya qiladilar. Ular jamiyatdagi qonuniylik va tartibni saqlash, jinoyatchilikning oldini olish, ommaviy tadbirlarni xavfsiz tashkil etish va favqulodda vaziyatlarda samarali harakat qilish vazifalarini bajaradilar. Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi roli jamiyatda barqarorlik, adolat va tinchlikni saqlash uchun muhimdir. Ular fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, jinoyatchilikning oldini olish va favqulodda holatlarda tezkorlik bilan harakat qilish orqali jamiyatning ijtimoiy tartibini ta'minlaydilar. Ichki ishlar organlarining samarali faoliyati jamiyatdagi xavfsizlik muhitini mustahkamlaydi, bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni kuchaytiradi.

Ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi huquqshunoslik, kriminologiya va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohalarida keng o'rganilgan. Ichki ishlar organlarining ushbu sohada faoliyatini ilmiy tahlil qilishda jahon va mahalliy olimlar turli nazariy modellar hamda amaliyotga oid tavsiyalar ishlab chiqishgan.

Ommaviy tadbirlar xavfsizligi masalasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini, balki jamiyatdagi umumiy xavfsizlik madaniyatini qamrab oladi. Nemis huquqshunosi V.Brunsnings ta'kidlashicha, "jamoat xavfsizligini ta'minlash – bu faqat jinoyatlarning oldini olish emas, balki fuqarolarni o'zini xavfsiz his qilishini ta'minlash bilan bog'liq keng ijtimoiy jarayondir"¹. Bruns ommaviy tadbirlarni tashkil etishda "qatlamli xavfsizlik modellari"dan foydalanishni taklif qiladi. Uningcha, tadbir xavfsizligi tizimi profilaktik choralar, xodimlarning tayyorgarligi, texnik nazorat vositalari va tezkor harakatlar rejalaridan tashkil topgan bo'lishi kerak.

Rossiyalik olimlardan V.G. Nekrasov va P.A. Ovchinnikovlar ham ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining ishtiroki haqida yozib, "ommaviy tadbirlar – bu yuqori xavfli ijtimoiy muhit, va ularda huquq-tartibotni saqlash organlarining strategik hamda taktik rejalashtirishi hal qiluvchi ahamiyatga ega"², – deb ta'kidlaydilar.

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu sohada faol tadqiqotlar olib borgan. Xususan, huquqshunos M.Jurayev o'z asarida ta'kidlaydiki: "ommaviy tadbirlarda ichki ishlar organlarining faoliyati nafaqat jinoyatchilikning oldini olish, balki inson huquqlarini ta'minlash bilan ham

¹ Bruns, W. Sicherheit und Ordnung bei Großveranstaltungen, 2012. – P. 79.

² Ovchinnikov P.A., Nekrasov V.G. Obespechenie obshestvennogo poriyadka pri massovix meropriyatiyax, Moskva, 2014. – S. 47.

bog‘liq. Shu bois, xodimlar huquqiy bilimlar bilan bir qatorda, kommunikativ va psixologik ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishlari zarur”³.

Shuningdek, A.Qurbonov “ommaviy tadbirlarda ishtirok etuvchi fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlash – ichki ishlar organlari samaradorligini oshirishda muhim omil”⁴ ekanini ta’kidlaydi.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etishda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi zamonaviy huquqiy-ijtimoiy muhokamalar markazida turibdi. Nemis huquqshunosi V. Bruns bu jarayonni faqat jinoyatlarning oldini olish emas, balki fuqarolarning o‘zini xavfsiz his etishini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy jarayon sifatida ko‘radi. Uningcha, “qatlamli xavfsizlik modellari” tadbirni har tomonlama qamrab oladigan profilaktik va reaktiv choralarini o‘z ichiga olishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, rossiyalik olimlar V.G. Nekrasov va P.A. Ovchinnikovlarning fikrlari ham ushbu yondashuvni to‘ldiruvchi xususiyatga ega. Ular ommaviy tadbirlarni “yuqori xavfli ijtimoiy muhit” sifatida baholab, huquq-tartibot organlarining strategik va taktik rejalashtirishini hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatadilar. Bu esa ichki ishlar organlarining nafaqat tadbir vaqtida, balki unga tayyorgarlik bosqichidagi ishtirokiga ham alohida e’tibor qaratishni talab etadi.

O‘zbekistonlik huquqshunos M.Jurayev esa masalaga yanada inson huquqlariga tayangan, xolisona yondashuvni ilgari suradi. Uning ta’kidlashicha, ichki ishlar organlari xodimlari jinoyatchilikning oldini olish bilan birga, inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilishni ham ta’minlashi shart. Bu esa ulardan huquqiy, kommunikativ va psixologik kompetensiyalarni talab etadi.

Shu bilan birga, A.Qurbonovning fikricha, ommaviy tadbirlarda ishtirok etuvchi fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish va jamoatchilik bilan samarali hamkorlik o‘rnatish ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini yanada oshiradi. Bu esa xavfsizlikni faqat kuch vositasida emas, balki ishonch, hamkorlik va huquqiy ong orqali ta’minlash g‘oyasini ilgari suradi.

Shunga ko‘ra, ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlardagi faoliyati ko‘p qirrali vazifalarni qamrab oladi, jumladan jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatlarning oldini olish, inson huquqlarini himoya qilish, hamda fuqarolar bilan ishonchli muloqot o‘rnatish. Turli olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar ushbu faoliyatning kompleks, tizimli va insonparvar tusini ochib beradi.

I.Ismailov va M.Jurayevlarning ta’kidlashicha, “ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun profilaktik chora-tadbirlarni o‘tkazadi va jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshiradi. O‘zbekistonda bu maqsadga erishish uchun islohotlar doirasida jamoat tartibini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy qilindi.

Bunda mahalliy darajada "mahalla" tizimiga asoslangan nazorat va patrul xizmatlari tashkil qilingan bo‘lib, bu jamoat xavfsizligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi”⁵.

³ Jurayev M., Huquq-tartibotni ta’minlashda profilaktik mexanizmlar, Toshkent, 2019, 58-b.

⁴ Qurbonov A., Ijtimoiy xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Samarqand, 2021. – B. 27.

Biroq, ushbu yondashuvning samaradorligi yuzasidan ba'zi savollar tug'iladi. Birinchi navbatda, mahalla tizimining potentsiali qay darajada jamoat xavfsizligini ta'minlashga qobil ekanini tahlil qilinishi lozim. Mahalla ko'proq ijtimoiy-tarbiyaviy va uyushtiruvchilik funksiyalarni bajaradi, ularning jinoyatchilikka qarshi kurashda professional tayyorgarlik darajasi cheklangan bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, profilaktik tadbirlarning mazmuni va shakli qanday ekanligi ham muhim.

Agar bu tadbirlar asosan statistik ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan formal yondashuv bilan chegaralansa, bunday choralarda uzoq muddatli samara bermasligi mumkin.

Haqiqiy profilaktika – bu fuqarolar bilan ishlash, ishsizlik, kambag'allik, ta'lim, yoshlar muammolari kabi omillarni bartaraf etish orqali jinoyatchilikka olib keluvchi shart-sharoitlarni yo'q qilishni talab etadi.

Shuningdek, mahalliy darajadagi patrul xizmatlarining mustaqilligi va javobgarligi masalasi ham dolzarbdir. Bu xizmatlar qay darajada professional va xolis ishlaydi? Ularga jamoatchilik nazorati qanday ta'minlangan? Ayni shu savollar tizim samaradorligini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

I. Ismailov va M. Jurayevlarning nuqtayi nazarini ma'lum darajada asosli deb baholagan holda, ushbu tizimning samaradorligini oshirish uchun uning tashkil etilishi, faoliyat prinsiplari va jamoatchilik bilan hamkorligi kabi jihatlar ustidan chuqur tahlil va tanqidiy yondashuv zarur.

Faqat shundagina jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari va mahalla tizimi samarali hamkorlikni yo'lga qo'ya oladi.

Nazariy jihatdan, mazkur mavzuda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Sistemali yondashuv – jamoat xavfsizligini faqat ichki ishlar organlarining vazifasi deb emas, balki davlat organlari, mahalliy hokimiyat, fuqarolik jamiyati va fuqarolar hamkorligida amalga oshiriladigan tizimli jarayon sifatida qarash⁶. Bu model jahon banki va YEXHTning xavfsizlik bo'yicha hisobotlarida ham taklif etilgan.

Qatlamlil xavfsizlik modeli (Layered Security Model) – ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni bir nechta chek-punkt, kuzatuv, patrul, tezkor guruh va ma'lumot monitoringi orqali bosqichma-bosqich nazorat qilish⁷. Bu model AQSH va Yevropa davlatlarida keng qo'llaniladi.

Qog'ozdagi xavfsizlik emas, amaliy ishonch modeli – bu yondashuvda ommaviy tadbirlarda fuqarolarni nazorat qilish emas, balki ular bilan ishonchli aloqa o'rnatish orqali jamoat xavfsizligi ta'minlanishi nazarda tutiladi⁸.

Ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash nafaqat operativ faoliyat, balki keng qamrovli strategik va ijtimoiy yondashuvni talab etadi. Ichki ishlar organlarining bu sohadagi faoliyati faqatgina qonuniylik emas, shuningdek inson huquqlari, jamoatchilik bilan ishlash va xavf tahlili kabi ko'plab omillarga asoslanishi kerak.

⁵ Isamiddin Ismailov; Mukhiddin Utkurovich Djurayev Improving the management system of the internal affairs bodies is a guarantee of the effective organization of their activities. <https://aijsh.com/wp-content/uploads/2021/12/11.22-Isamiddin-Ismailov-1.pdf>

⁶ OSCE Handbook on the Policing of Assemblies, 2016. – P. 29.

⁷ Rigg, T. Security Management for Major Events, 2017. – P. 73.

⁸ Loader, I. & Walker, N. Civilizing Security, Cambridge University Press, 2007. – P. 182.

Ilmiy va xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, xavfsizlikni ta'minlashning samarali usuli – bu faqat kuch emas, balki ishonch, bilim va hamkorlikdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni⁹ bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish strategiyasida ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi roli va funksional vazifalari aniq belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni huquqiy va tashkiliy nuqtayi nazardan tahlil qilish, mamlakatimizda ommaviy tadbirlarning xavfsiz o'tkazilishida ichki ishlar organlarining o'rnini har tomonlama ochib berish imkonini beradi.

Farmonga muvofiq, ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlovchi davlat organi sifatida fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, huquq va erkinliklari, mulk, jamiyat va davlat manfaatlarini turli tahdidlardan himoya qilish vazifasini bajaradi.

Ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida quyidagi tashkiliy, profilaktik va huquqiy xarakterga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshiradi:

birinchidan, ommaviy tadbirlarni o'tkazish davomida jamoat tartibini saqlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

ikkinchidan, Milliy gvardiya va boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda hududiy muvofiqlashtiruvchi shtablar faoliyatini tashkil etish, kuch va vositalarni operativ boshqarish (PF-27, 6-band);

uchinchidan, ommaviy tadbirlar uchun to'liq xavf tahlili (risk assessment) asosida nazorat nuqtalari, evakuatsiya yo'nalishlari va rezerv kuchlarini shakllantirish;

to'rtinchidan, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlarda qonun doirasida kuch ishlatish choralari huquqiy asosda qo'llash hamda huquqbuzarlarga nisbatan protsessual ta'sir choralari qo'llash;

beshinchidan, xodimlarning xizmat faoliyati samaradorligini reytingov baholash, ularning tayyorgarligi va bilim darajasini oshirish (PF-27, 6-band, "ye" qismi).

Shu bilan birga, Farmon bilan ichki ishlar organlari tarkibida tashkil etilgan Jamoat xavfsizligi departamenti - ommaviy tadbirlardagi xavfsizlikni ta'minlash borasida idoralararo muvofiqlashtirish, tizimli tahlil va uslubiy rahbarlikni amalga oshiruvchi markaziy organ hisoblanadi. Uning zimmasiga:

birinchidan, barcha hududiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

ikkinchidan, ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligi choralari tashkil etish va monitoring qilish;

uchinchidan, ommaviy tadbirlardan keyin tahlil ishlarini olib borish va erishilgan natijalar bo'yicha Vazirlar Mahkamasi va Prezident Administratsiyasiga hisobot taqdim etish vazifalari yuklatilgan (PF-27, 5-band).

Shuningdek, ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlash sohasida tashkiliy-nazorat funksiyalarini kuchaytirish bo'yicha qator islohotlar nazarda tutilgan. Jumladan: tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmalari tashkil etilishi, bu orqali kuch va vositalardan oqilona foydalanish imkoni yaratiladi; elektron nazorat tizimlari, xususan elektron brasletlar orqali

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5749291>.

xavfli toifadagi shaxslarni nazorat qilish (PF-27, 3-band, “g” qismi); ommaviy tadbirlar o‘tkazishni tartibga soluvchi alohida qonun loyihasi ishlab chiqilishi belgilangan (Strategiya, 2-bob, 13-band).

Konsepsiyaga muvofiq, ichki ishlar organlari o‘z faoliyatida quyidagi ilmiy-huquqiy tamoyillarga amal qilishi zarur: qonuniylik va fuqarolar huquqlarini hurmat qilish; profilaktika ustuvorligi – tahdidlarni aniqlash va oldini olish choralari; ochiqlik va jamoatchilik bilan hamkorlik, jumladan fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy aloqalarni yo‘lga qo‘yish (Konsepsiya, 1-bob, 4–5-bandlar)¹⁰.

Farmon mazmunidan kelib chiqib, ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlar jarayonida jamoat xavfsizligini ta‘minlashga oid vazifalari me‘yoriy-huquqiy, tashkiliy-nazorat va profilaktik yo‘nalishda shakllangan. Ushbu vazifalar ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlashning institutsional asosini mustahkamlab, huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Mazkur faoliyatdagi samaradorlik faqat huquqiy asoslarning mukammalligi emas, balki amaliy mexanizmlarning ishlashi, jamoatchilik bilan ishonchli muloqot va kadrlar salohiyati bilan bevosita bog‘liq.

Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni tashkil etish jarayonida jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi yana bir muhim hujjat bu, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori ¹¹ - jamoat xavfsizligini ta‘minlash, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i, mol-mulki, shuningdek jamiyatda barqarorlikni saqlash yo‘lida muhim normativ-huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu qarorning dolzarbligi, avvalo, mamlakatimizda ommaviy tadbirlar soni va turining ko‘payishi, ularda qatnashuvchilar sonining ortishi fonida xavfsizlikni tashkil etishga bo‘lgan ehtiyojning oshganligi bilan bog‘liqdir.

Mazkur qaror orqali ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayoni qat‘iy huquqiy tartibga solingan bo‘lib, unda ishtirok etuvchi davlat organlari, xususan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar xizmati va sog‘liqni saqlash tizimi o‘rtasidagi hamkorlik aniq belgilab berilgan. Bu esa jamoat xavfsizligi sohasidagi vazifalarni muvofiqlashtirish, har bir ommaviy tadbirni xavfsiz o‘tkazish uchun yetarli tashkiliy va texnik sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Qarorning ahamiyatli jihatlaridan yana biri – ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda ishtirokchilarning xavfsizligini ta‘minlashga doir shartnomalarni tuzish majburiyati, tadbirlarning toifalari bo‘yicha turli darajadagi xavf tahlilini amalga oshirish va tadbir joylarini pasportlashtirish kabi mexanizmlarni joriy etganidir.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5749291>.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 32-son, 398-modda; 2015 y., 1-son, 9-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017 y., 10/17/1001/0447-son; 01.06.2018 y., 09/18/396/1287-son, 30.10.2018 y., 09/18/884/2128-son, 05.07.2019 y., 09/19/559/3384-son, 11.08.2019 y., 09/19/661/3571-son; 28.12.2020 y., 09/20/810/1673-son; 09.01.2021 y., 09/21/7/0005-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 27.07.2021 y., 09/21/464/0710-son; 22.02.2022 y., 09/22/86/0160-son, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son; 15.08.2022 y., 09/22/444/0738-son; 07.10.2023 y., 09/23/530/0757-son; 29.06.2024 y., 09/24/360/0456-son; 13.09.2024 y., 09/24/569/0714-son.

Bu nafaqat huquqbuzarliklar va terroristik tahdidlarning oldini olish, balki ommaviy psixologiya, evakuatsiya va favqulodda vaziyatlarga tezkor reaksiyani tashkil etishda ham huquqiy va amaliy zamin yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan qargalanda, mazkur qaror mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi preventiv (oldini oluvchi) tizimni huquqiy jihatdan mustahkamlab, barcha ishtirokchi subyektlarning javobgarligini aniq belgilab beradi. Qarorning amaliy tatbiq etilishi ichki ishlar organlarining faqat nazorat qiluvchi emas, balki xavfsizlikni strategik boshqaruvchi va tashkil etuvchi tuzilma sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni tashkil etish jarayonida jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy asoslaridan yana biri bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmoni¹² mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda asosiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu farmon ichki ishlar organlarining vazifalari va funksiyalarini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishga xizmat qildi hamda ularni jamoat xavfsizligini ta'minlashning institutsional asosiga aylantirdi.

Farmonga ko'ra, jamoat xavfsizligini ta'minlash faqat ichki ishlar organlarining vazifasi sifatida emas, balki "mahalla – tuman – viloyat – respublika" tizimi asosida tashkil etilgan yagona boshqaruv mexanizmi sifatida shakllantiriladi. Bu tizim orqali huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashda barcha davlat organlari, jamoatchilik va mahalla institutlari ishtirokini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Shuningdek, farmonda ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlash faoliyati uchun zarur tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilgan. Jumladan, ichki ishlar organlari tarkibida Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etilgan hamda jamoat xavfsizligiga oid masalalarni o'rganuvchi ilmiy-amaliy tadqiqot faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu esa, jamoat xavfsizligi sohasida tahlil, prognoz va amaliyotga oid ilmiy tavsiyalarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Farmonda axborot texnologiyalaridan foydalanish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, "Smart mahalla", "E-inspektor", "E-hisobot" va "Situatsion markaz" kabi zamonaviy axborot tizimlari orqali ommaviy tadbirlar davomida tezkor boshqaruv, axborot almashish va tahlil qilish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bu esa real vaqtda xavf tahlili va resurslar boshqaruvini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati, bilim va malakasini oshirish, ularni psixologik jihatdan tayyorlash ham farmonda muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu, ayniqsa, ommaviy tadbirlarda murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, fuqarolar bilan muloqot qilish va inson huquqlarini himoya qilish kabi faoliyatlar uchun alohida ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytilish mumkinki, PF-6196-son Farmoni ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy, tashkiliy va axborot-texnologik jihatdan tubdan isloh qilgan hujjat bo'lib, u ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining faoliyati

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 06/21/6196/0240-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024 y., 06/24/10/0031-son // <https://www.lex.uz/docs/5344118>.

uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Ushbu farmon jamoat xavfsizligini ta'minlashni nafaqat kuch va nazorat vositalari, balki bilim, mas'uliyat, texnologiya va hamkorlikka asoslangan tizim sifatida shakllantirishda muhim qadam bo'ldi.

Tadqiqot predmetiga oid munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi muhim hujjatlardan yana biri bu, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentabrdagi 569-sonli qarori¹³ bo'lib, mazkur qaror mamlakatda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va xavfsiz o'tkazish faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qarorning qabul qilinishi jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, idoralararo hamkorlikni mustahkamlash va ichki ishlar organlarining vakolat va majburiyatlarini aniq belgilash imkonini yaratdi.

Qarorda ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlar jarayonidagi faoliyati to'liq huquqiy asosda aniqlangan bo'lib, ular jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, xavf tahlillari o'tkazish, evakuatsiya yo'nalishlarini belgilash va tadbir ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Shu orqali, ichki ishlar organlari faoliyatidagi har bir harakat va qaror huquqiy me'yorlarga asoslangan bo'lishi kafolatlanadi.

Qarorning yana bir muhim jihati shundaki, u ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda faqat ichki ishlar organlarining emas, balki boshqa mutasaddi idoralarning ham faol ishtirokini belgilab beradi. Xususan, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar xizmati, tibbiyot muassasalari va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda ish olib borish, ular o'rtasida vazifa va mas'uliyatlarni aniq taqsimlash orqali jamoaviy xavfsizlik mexanizmi yaratiladi.

Qaror fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, ommaviy tadbirlarda ishtirok etuvchi har bir shaxsning hayoti, sog'lig'i va qadr-qimmatini davlat tomonidan himoya qilinadi, va har qanday majburiy choralar faqat qonun doirasida va zarur hollarda qo'llanilishi mumkin. Bu esa huquqiy davlat tamoyillariga to'la mos ravishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir.

Qaror shuningdek har bir tadbir uchun xavf tahlilini amalga oshirish, nazorat-o'tkazish punktlarini belgilash, evakuatsiya yo'nalishlarini ishlab chiqish va qo'shimcha kuch hamda vositalarni jalb qilishni nazarda tutadi. Bunday tizim xavflarni ilgari aniqlash, tezkor boshqaruvni tashkil etish va real vaqtda holatga qarab samarali qaror qabul qilish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur qaror ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlar jarayonidagi faoliyatini huquqiy, tashkiliy va funksiyaviy jihatdan tartibga soladigan asosiy hujjat hisoblanadi. U jamoat xavfsizligini ta'minlashni qonuniylik, fuqarolar huquqlarini himoya qilish, tizimli boshqaruv va idoralararo hamkorlik tamoyillari asosida amalga oshirishni nazarda tutadi.

Shu bois, mazkur qaror ichki ishlar organlari uchun nafaqat yo'riqnoma, balki ularning faoliyatidagi strategik yo'nalishlarni belgilovchi huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni¹⁴ bilan tasdiqlangan Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

¹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentabrdagi 569-sonli "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2024 y., 09/24/569/0714-son // <https://www.lex.uz/docs/7102947>.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik

Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori¹⁵da Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalariga aloqador bir qator muammoli holatlar qayd etilgan. Ularning asosiylari quyidagicha:

Birinchi muammoli holat: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasida "Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega"¹⁶, deb belgilangan. Biroq, mamlakatimizda mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklidagi ommaviy tadbirlarni huquqiy tartibga soluvchi qonunchilik hujjati mavjud emas. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini"ning 2-qismida "Ushbu Qoidalarining amal qilishi yig'ilishlar, namoyishlar, ko'cha yurishlari va namoyishlarini, shuningdek to'y, oilaviy, yubiley, vafot etganlar xotirasiga bag'ishlangan oilaviy aza marosimlari va tadbirlarni o'tkazishga tatbiq etilmaydi"¹⁷ deb belgilab qo'yilgan. Biroq, biz tadqiqotimiz davomida dunyo amaliyotini tahlilidan ko'rishimiz mumkinki, "miting", "yig'ilish" va "namoyishlar" ommaviy tadbirlarning turlari hisoblanadi.

Ikkinchi muammoli holat: kuch va vositalarni muvofiqlashtirishdagi muammolar.

Ommaviy tadbirlarda Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya, shuningdek boshqa tuzilmalarning birgalikdagi harakat algoritmi doimiy ravishda takomillashtirilishi lozim. Bu esa avval mavjud bo'lgan muvofiqlashtirishdagi samarasizliklardan dalolat beradi;

Uchinchi muammoli holat: qonunchilikdagi bo'shliqlar. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini aniq tartibga soluvchi alohida qonun hujjatining mavjud emasligi sohada huquqiy asoslarning yetarli emasligini ko'rsatadi;

To'rtinchi muammoli holat: moddiy-texnik ta'minot muammolari. Jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi kuch va vositalarning tayyorligini, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash zarur. Bu esa ayrim hududlarda resurslar yetishmasligi muammosi mavjudligini ko'rsatadi;

ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son; 16.01.2024 y., 06/24/10/0031-son// <https://lex.uz/docs/5749291>.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 32-son, 398-modda; 2015 y., 1-son, 9-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017 y., 10/17/1001/0447-son; 01.06.2018 y., 09/18/396/1287-son, 30.10.2018 y., 09/18/884/2128-son, 05.07.2019 y., 09/19/559/3384-son, 11.08.2019 y., 09/19/661/3571-son; 28.12.2020 y., 09/20/810/1673-son; 09.01.2021 y., 09/21/7/0005-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.07.2021 y., 09/21/464/0710-son; 22.02.2022 y., 09/22/86/0160-son, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son; 15.08.2022 y., 09/22/444/0738-son; 07.10.2023 y., 09/23/530/0757-son; 29.06.2024 y., 09/24/360/0456-son; 13.09.2024 y., 09/24/569/0714-son.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son // <https://lex.uz/docs/6445145>.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 32-son, 398-modda; 2015 y., 1-son, 9-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017 y., 10/17/1001/0447-son; 01.06.2018 y., 09/18/396/1287-son, 30.10.2018 y., 09/18/884/2128-son, 05.07.2019 y., 09/19/559/3384-son, 11.08.2019 y., 09/19/661/3571-son; 28.12.2020 y., 09/20/810/1673-son; 09.01.2021 y., 09/21/7/0005-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.07.2021 y., 09/21/464/0710-son; 22.02.2022 y., 09/22/86/0160-son, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son; 15.08.2022 y., 09/22/444/0738-son; 07.10.2023 y., 09/23/530/0757-son; 29.06.2024 y., 09/24/360/0456-son; 13.09.2024 y., 09/24/569/0714-son.

Beshinchi muammoli holat: kadrlar tayyorgarligi va malaka muammolari. Xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga oid choralarni belgilash. Bu sohaga oid bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi – ayniqsa ommaviy tadbirlar kabi murakkab sharoitlarda ishlash uchun – dolzarb muammo sifatida qayd etilgan;

Oltinchi muammoli holat: tezkor boshqaruv va axborot almashish tizimlarining yetishmasligi. Idoralararo muvofiqlashtiruvchi yagona markazlashgan tizim tashkil etilishi, tezkor boshqaruv va axborot almashish mexanizmlarining takomillashtirilishi lozim. Bu - real vaqtda harkatlarni muvofiqlashtirishda qiyinchiliklar bo'lganini anglatadi.

Keltirib o'tilgan ushbu muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xususan:

birinchidan, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish. Xususan, "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi alohida qonun loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Qonun bilan tadbirlarning turi, ishtirokchi organlar, mas'uliyat, javobgarlik, fuqarolik huquqlari va kafolatlar aniq belgilanishi lozim. Chunki, huquqiy aniqlik va normativ asoslar inson huquqlarini muhofaza qilish va davlat organlari vakolatlarini chegaralashning asosiy kafolati hisoblanadi.

ikkinchidan, kuch va vositalarni muvofiqlashtirishdagi muammolarni hal etish yuzasidan "Yagona jamoat xavfsizligi markazi"ni tashkil etish, unda IIV, Milliy gvardiya, FVV, DXX va mahalliy hokimiyat organlari vakillari doimiy ravishda hamkorlik qilishi ta'minlanadi. Har bir ommaviy tadbir uchun "taktik-kordinatsion reja" ishlab chiqish va uni barcha ishtirokchi tuzilmalar o'rtasida qo'shma tasdiqlanishi lozim. Harakatlarni muvofiqlashtirish uchun "jonli axborot dispetcherizatsiya tizimi" (onlayn platforma)ni joriy etish.

Mutaxassislar o'rtasidagi operativ hamkorlik va funksiyalar aniqligini ta'minlashda tizimli boshqaruv nazariyasi, kibernetika va komandalar oralig'idagi interfeys mosligi nazariyalari qo'llaniladi.

uchinchidan, zaxiralarni samarali taqsimlashda resurslarni optimal boshqarish nazariyasi va budjetlashtirishning zamonaviy usullari (performance-based budgeting) muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, hududiy xavfsizlik infratuzilmasini baholash indeksi joriy etilib, unga qarab moddiy resurslar taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, yangi texnologiyalar (dronlar, bodi-kameralar, mobil markazlar)dan foydalanishni kengaytirish lozim. Shuningdek, ijtimoiy sheriklik va autsorsing asosida jamoat xavfsizligiga yordamchi xususiy tuzilmalarni jalb etish maqsadga muvofiq.

to'rtinchidan, amaliy pedagogika va kognitiv psixologiya asosida ichki ishlar organlari xodimlarida stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Jamoat xavfsizligi sohasida ixtisoslashgan malaka markazlarini tashkil etish, maxsus treninglar, ssenariy asosida simulyatsiyali mashg'ulotlar o'tkazish, har yili ommaviy tadbirlarni boshqarishga doir milliy seminarlar va tajriba almashuv forumlarini tashkil etish, interaktiv platforma orqali onlayn o'quv tizimini joriy etish lozim.

beshinchidan, axborot tizimlarida integratsiya nazariyasi va kiber xavfsizlik talablariga mos tizimli arxitektura modellari asosida barcha idoralar ishtirok etadigan yagona raqamli "Smart Public Safety" platformasini yaratish, har bir xodim mobil qurilma yoki planshet orqali onlayn shtab, favqulodda holat xabarlar va yo'naltirishlar bilan ta'minlanishi kerak.

IIV va Milliy gvardiya serverlari o'rtasida real-time ma'lumot almashinuvi uchun kriptografiya vositalarini joriy etish.

Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni tashkil etish jarayonida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalari tahlilidan xulosa qilib aytganda ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy tuzilma sifatida ommaviy tadbirlarning har bir bosqichida – tayyorgarlik, o'tkazish va tahlil davrlarida – tashkiliy, profilaktik va huquqiy choralarni amalga oshiradi. Ularning vazifalariga jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikning oldini olish, kuch va vositalarni muvofiqlashtirish, xavf tahlili asosida tadbir ssenariysini ishlab chiqish, xodimlarning tayyorgarligini ta'minlash va aholi bilan ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish kiradi.

Yuqorida tahlil qilingan qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalar amaliyotdagi mavjud muammolar - huquqiy bo'shliqlar, idoralararo muvofiqlashuv muammolari, resurs tanqisligi, kadrlar malakasi va axborot tizimlari yetishmasligi kabi holatlar bilan to'ldirilishi talab etiladi. Bundan kelib chiqib, ichki ishlar organlari faoliyati nafaqat xavfsizlikni ta'minlash, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilgan holda, tizimli, insonparvar va ilmiy asoslangan yondashuvga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.